

**BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ
IRIM-SIRIMLAR**

Yarashova Mohlaroyim Shuhrat qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Sultonova Munavvar

Osiyo xalqaro universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1472777>

Annotatsiya. Moddiy madaniyatning muhim qismi kiyim-kechaklarni o'rghanish jarayonida xalq urf-odatlari va ananalari qadriyat sifatida ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada Buxoro voxasi kiyim-kechaklari bichilishi hamda tikilishi bilan bog'liq rasm-rusm va odatlar etnologik tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: etnik tarkib, an'anaviy madaniyat, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, an'anaviy kiyim kechaklar, marosimlar, urf-odatlar, qadriyat, an'ana, aqiba, otinoyi, fotiha, chimildiq, salomnoma, muxammas.

Buxoroda ham Respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari marhum vafot qilgan kundan boshlab uning yaqin qarindoshlari aza tutib motam libosini kiyganlar[1].

Azadorlarni motamsaro rangdagi aza libosi boshqalardan ajratib turgan. Ko'pincha «o'limlik tuguni» tayyorlab qo'yan onaxonlar qizlari, kelinlari, opa-singillariga atab ko'k rangdagi matolarni yiqqanlar. Vohadagi piru badavlat keksa momolar va bobolar o'zlarining dafn marosimlari uchun «o'limlik buxchasi»ni g'amlaganlar. Ushbu buxchadagi kiyimlar marhumni yuvgan murdashuylarga berilgan. «O'limlik buxchasi»dagi kiyim-kechaklar tarkibi erkak kishi uchun to'n, ko'ylak, do'ppi, mahsi-kalish va oq ishtondan iborat bo'lgan bo'lsa, ayollar uchun to'n, xalat, ro'mol, ikkita ko'ylak, kultapo'shak, po'pak, mahsi-kalish kabi narsalarni o'z ichiga olgan. Oldinlari murdasho'ylarga marhumning kiyib yurgan kiyimlari berilgan bo'lsa, hozirda ohorli yangi kiyim taqdim etiladi. Xalq orasida «agar mazkur kiyimlar murdasho'yga berilmasa, marhum qiyomatda yalongoch holda qayta tiriladi», degan tasavvur bo'lganligi bois barcha kishilar doimo murdasho'yga boshdan-oyokq sarpo qilishga harakat qilishgan.

Motam marosimlarida marhumning eng yaqin qarindoshlari aza libosini kiyganlar. Marhumning erkak qarindoshlari do'ppi va to'n kiyib, bellarini belqars bilan bog'laganlar. Ular marhumning «kir yuvdi» marosimigacha mayyit dafn qilingan kun bellariga bog'langan matolardan an'anaviy bichimli ko'ylak va lozim tiktirib kiyishgan. Marhum dafn etiladigan kuni vohadagi qovchin, qipchoq, mang'it kabi etnik guruhlarda mayitning yaqinlari (onasi, xotini,

singlisi va boshqalar) olacha kiyishgan. Qolgan barcha azadorlar qimmatbahо va yangi kiyimlarini kiyib yig'laganlar va jamoa bo'lib, sadr[2]tushishgan. Ayol tomondan qarindosh keksalar vazmin rangli matodan tikilgan kamzul kiyganlar. Ayrim joylarda, marhumning to'ni va bosh kiyimini kiyib, belbog'ini bog'laganlar. Belbog'da esa marhum tirikligida yig'ib yurgan va vafot qilgan kuni berilgan matoni osib qo'yishgan.

Aza davrida ayollar taqinchoq taqishmagan, o'zlariga xushbuy narsalar ham surtmaganlar.

Ular odmi rangli kiyimlarni kiyib, boshlariga ham ko'k rangli ro'mol o'ranganlar, oyoqariga mahsi-kalish kiyganlar. Azadorlik kiyimlarini marhum vafot qilgan xonodon egasi bergan. Buxoro vohasi o'zbeklarida motam kiyimlari asosan ko'k va oq rangdagi matolardan iborat. Aza marosimlarini maxsus tadqiq qilgan Q.Nasriddinovning yozishicha, agar marhum yosh bo'lsa, yashil rangdagi kiyim ham kiyilgan[3]. Eri vafot qilgan ayol motam belgisi sifatida boshiga oq ro'mol o'rab, egniga ko'k ko'yak va ishton kiygan. Voha tojiklarining motam kiyimi esa qora ko'yak va oq ro'moldan iborat bo'lgan. Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahrida ayollar aza libosi uchun mo'ljallangan to'q rangli mato bilan bellarini bog'lashgan. XX asrning 50-yillarigacha vohada mayitni dafn etishdan oldin uning yaqin qarindoshlari surp bilan bellarini bog'lash odati bo'lgan. Marhumning «bel bog'lagan» yaqin qarindoshlari mayit dafn qilib kelingandan keyin bellaridagi surp belbog'i yechib qo'yishgan. XX asrning 50-60-yillarigacha azadorlik belgisi sifatida marhumning onasi, qizi, xotini sochlarini to'liq yoki qisman yoygan holda yig'laganlar. Motamda faqat marhumning oila a'zolari emas, balki, qarindoshlari ham bel bog'lashgan. Aynan o'sha kuni marhumning opa-singillari, qizlari, onasi va ayoli aza libosini kiygan. Ularga nisbatan xalq orasida «azador», «ko'ki bor», «ko'k kiygan» iborasi ishlatilgan.

O'rta asrlarga oid manbalarda ham ajdodlarimizning aza kiyimlari to'g'risidagi ba'zi tafsilotlar yoritilgan. Jumladan, Zayniddin Vosifiyning «Badoe ul voqeа» asarida kursatilishicha, azador kishilar egnilariga ko'k kiyim kiyganlar. Q.Nasriddinovning ta'kidlashicha, ko'k rang vazminlik va motam belgisi hisoblangan[4]. Bizningcha, azada ko'k kiyish an'anasi qadimgi turkiy qavmlar e'tiqodiga ko'ra, marhumlarning ruhi Ko'k tangri ixtiyoriga, ya'ni osmonga chiqib ketishi bilan bog'liq tasavvurlar asosida kelib chiqqan bo'lsa kerak.

Vohaning aksariyat joylarida marhumning eng yaqin qarindoshlari uchun mayyitning birinchi ta'ziyasiga qadar aza kiyimlari tikib bo'lingan va o'sha kuni aza kiyimlari kiyilgan. Ba'zi joylarda aza kiyimini marhumning xudoyi(yetti)sigacha tikib kiyganlar, chunki «yetti» motam marosimining asosiy uzvi hisoblangan. Vohadagi mang'it, qarluq, qovchin, saroy kabi urug'lar yashovchi qishloqlarda marhumning «kir yuvdi» marosimida keksa momolar tomonidan maxsus motam ko'yaklari tikib kiydirilsa, boshqa joylarda motamsaro oilalarda marhumning yaqin

qarindosh ayollari an'anaviy bichimli tayyor ko'k ko'yaklarni kiyganlar. O'z o'mida shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, vohada yashovchi qo'ngirotlarning aza kiyimlari boshqa etnik guruhlarnikidan farqlanib turgan.

Qo'ngirotlarda agar marhum yosh bo'lsa, ayollar aza vaqtida sallasining ustidan oq o'ragan, ularning ko'yagli, izori, jelagi va ro'moli vazmin rangda bo'lishi lozim bo'lgan.

Qolaversa, ayollar barcha taqinchoqlari-burnidagi letvasi, qulqodagi buloqisi, barmog'idagi uzugi va bilakuzugini yechib qo'ygan[5].

Vohada motam kiyimlari ayollar uchun ikki sidra ko'yak, jiyaksiz lozim va chorsi ro'moldan iborat bo'lgan. Bu kiyimlar marhumning qirqigacha yuvilmagan va «qirq» kuni o'tkazilgan maxsusus «kir yuvdi» marosimida marhumning kiyimlari bilan birga yuvilgan. «Kir yuvdi»da yuviladigan kirlar ikkiga bo'lingan. Marhumning kiyimlari «qora kir» deb atalib, alohida yuvilgan bo'lsa, motamda qatnashgan yaqin qarindoshlarning kiyimlari «oq kir» deb alohida yuvilgan. Motam kiyimlari azadorlar tomonidan to marhumning vafot qilganiga bir yil to'lgunicha kiyilgan. Marhum oilasidan «ko'k libos» olgan ayol aza muddati tugagach, “oq solar”marosimiga bir kiyimlik ko'k bo'lмаган mato olib kelishi lozim bo'lgan. Marhumning vafotiga bir yil to'lganda motam kiyimlari yechilib, azadorlarga qizil ro'mol o'ratilgan va rangdor ko'yak kiydirilgan. Shu kuni azadorlarga qizil ro'molcha ham berilgan. Marhumning onasi va bevasi oq kiyim kiygan. Bu odat deb “oq solar”atalgan Vohada ham Respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari erkaklarning maxsus motam liboslari bo'lmagan. Marhumning eng yaqin qarindoshlari motam marosimlari o'tkaziladigan kunlari do'ppi, chophon kiyib, bellarini qiyiq bilan bog'lashgan. Bundan tashqari, erkaklar hayit kunlari ham to'n, do'ppi kiyib, bellarini bog'lashgan.

Voha motam marosimida o'lgan odamning erkak yoki ayol kishi ekanligini uning tobutiga qarab ham aniqlash mumkin bo'lgan. Jumladan, agar erkak kishi vafot etgan bo'lsa, tobut ustiga to'n va belqars, agar dafn qilinayotgan mayyit ayol kishi bo'lsa, tobutga ro'mol yopilgan, agar marhum erkak kishi bo'lsa, uning tobuti ustiga yangi to'n va belqars yopib qo'yilgan, ayol kishi bo'lsa ro'mol, chit, satin, duxoba kabi matolar yopib qo'yilgan. Umuman olganda, motam marosimlari va to'y tantanalarida kiyiladigan kiyimlar nafaqat bezak, ko'rк vazifasini bajargan, balki, bir qator marosimiy vazifa va ramziy ma'nolarni ifodalashini ko'rishimiz mumkin. Kiyimlar bilan bog'liq urf-odatlar va rasm-rusumlar xalqning ming yillik an'analari, tabiiy-geografik sharoiti, xo'jalik yuritish madaniyati, etnik belgilari va umuman, milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, milliy kiyim-kechaklar bilan bog'liq tasavvurlar va urf-odatlarda xalqimiz xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan qadimgi tasavvurlar, uzoq tarix qa'ridagi ibtidoiy qarash va tushunchalar, asrlar davomidagi izchil kuzatishlardan hosil bo'lgan hayotiy hikmatlar - insoniyat tafakkurining in'ikosi bilan birga xalqning turmush tarzi, etnik tarixi va uning o'tmishi bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan.Qolaversa, an'anaviy kiyim-kechaklar bilan bog'liq marosimlarni etnografik nuqtai nazardan tadqiq qilish orqali qayta tiklanayotgan an'ana va marosimlarimizning ijobiyligi va salbiy tomonlarini farqlab yondashish bilan bir qatorda, xalqimizning madaniyati, o'tmishtdagagi ijtimoiy tuzumi va mafkurasi haqida birmuncha mufassal tushunchalarga ega bo'lamiz. Shuningdek, kiyim va kiyinish madaniyatini ilmiy tarzda o'rganish natijasida olingan xulosalar ko'plab marosim, rasm-rusum va urf-odatlarning genezisini aniqlashda muhim manba bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. Ruzieva M. Posmertnaya i traurnaya odejda uzbekov g. Tashkenta // Kostyum narodov Sredney Azii...- S.169-174; Karmysheva B.X. Arxaicheskaya simvolika v pogrebalno-pominalnoy obryadnosti uzbekov Fergany // Drevnie obryady, verovaniya i kultы narodov Sredney Azii. - M., 1986. - S. 139-141; Nasriddinov Q.O'zbek dafn va taziya marosimlari. - T., 1996. - B. 89-96;
2. Payziyeva M.O'zbeklarning motam marosimi xususiyatlari // O'zbekiston tarixi. - 2005. - № 3.
3. Nasriddinov Q.O'zbek dafn va taziya marosimlari. - T., 1996. - B.92.
4. Ruzieva M. Posmertnaya i traurnaya odejda uzbekov g. Tashkenta // Kostyum narodov Sredney Azii...- S.169-174; Karmysheva B.X. Arxaicheskaya simvolika v pogrebalno-pominalnoy obryadnosti uzbekov Fergany // Drevnie obryady, verovaniya i kultы narodov Sredney Azii. - M., 1986. - S. 139-141;
5. Nasriddinov Q.O'zbek dafn va taziya marosimlari. - T., 1996. - B. 89-96; Payziyeva M.O'zbeklarning motam marosimi xususiyatlari // O'zbekiston tarixi. - 2005. - № 3.
6. Ruzieva M. Posmertnaya i traurnaya odejda uzbekov g. Tashkenta// Kostyum narodov Sredney Azii... - S. 172.
7. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari:an'anaviylik va zamonaviylik.-T.:”Yangi asr avlodi”,2006.-B.145.

8. YArashova, M. . (2024). JAHON ETNOLOGIYASI FANI VA UNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
9. YArashova, M. (2024). BUXORO VOHASIDA MATO VA MATO TAYYORLASH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
10. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'lilotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lif Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszlosci*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
11. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
12. YArashova, M. (2025). PARANJI VA UNING O'RGANILISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
13. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
14. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
15. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
16. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
17. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
18. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
19. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.

20. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
21. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
22. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
23. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
24. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
25. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
26. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
27. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
28. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
29. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
30. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
31. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
32. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
33. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
34. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.

35. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV- " ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
36. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
37. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
38. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
39. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.